



2018 yilning yanvar – iyun oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Respublikasida jami 21 588,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,7 %ni tashkil etdi.	O'zbekiston	etdi.	Kichik korhona va tshkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,7 %i yoki 8 787,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,1 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 27,2 % yoki 5 871,4 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 %ni tashkil etdi.
Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 6 929,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 32,1 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,4 %ni tashkil			

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

21 588,8 mlrd.cym

Yirik pudrat

tashkilotlari ulushi -

32,1 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi -

40,7 %

Norasmiy sektor ulushi -

27,2 %

Yirik pudrat
tashkilotlari

- hajmi - **6 929,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **112,4 %**


Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

- hajmi - **8 787,9 mlrd.so'm**
- o'sish surati **114,1 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **5 871,4 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **101,1 %**

Yanvar - iyun oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 78,2 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi

ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 10,6 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

Yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 31,0 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,6 %

punktga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 35,0 % (0,5 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 34,0 %ni (4,1 % punktga kamayish) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyunida faoliyat turlari bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan %da)




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 46,7 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 47,6 % (0,3 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 5,7 %ni (1,6 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,8 % punktga kamaydi va 26,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 73,9 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalarhissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,8 % punktga ko'paydi.

Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Navoiy viloyati yetakchilik

qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 37,9 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan


Hududlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida kuzatildi 1,1 %. Bu hududdagi qurilish

ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 53, 2 %i.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)





Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Navoiy viloyatida kuzatildi. Ushbu hududda "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), Amudaryo-Zarafshon suv yo`lida nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish kabi loyihalarning amalga oshirilayotgani tufayli ushbu hududda o`shish suratinin 133,7 % bo`lishini ta`minladi.

Toshkent shahridagi yuqori o`shish surati, yani 110,9 % metro liniyalarining qurilishi, Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Samarqand viloyatidagi yuqori o`shish surati asosan norasmiy sektor tomonidan qurilish ishlarining jadal bajarilganligi bilan bog`liq.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56